

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TILLARNING O'RGATILISH AFZALLIKLARI

*Nomozova Sarvinoz Faxriddin qizi va  
Nurimbayeva Go'zal Vahob qizi  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Turizm fakulteti talabalari  
e-mail: [sarvinoznomozova50@gmail.com](mailto:sarvinoznomozova50@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga tillarning o'rgatilish afzalliklari haqida so'z borgan. Maqolada maktabgacha yoshda til o'rganishning psixologik va pedagogik jihatlarini ham yoritilib, samarali metodlar va yondashuvlar tavsiya etiladi. Erta yoshda o'zlashtirilgan tillar bolaning akademik yutuqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va kelajakdagi imkoniyatlarini kengaytirishi ta'kidlanadi.*

**Kalit so'zlari:** *chet tili, o'yinlar, she'rlardan, multfilmlar, psixik qiziqish, yoqtirish kategoriyasi, maktabgacha ta'lim, til o'rganish metodikasi, erta yoshda til o'rganish. innovatsion ta'lim, pedagogik yondashuvlar, til o'rganish psixologiyasi, interfaol metodlar.*

### THE BENEFITS OF TEACHING LANGUAGES TO PRESCHOOL CHILDREN

**Abstract:** *This article discusses the benefits of teaching languages to preschoolers. The article also explores the psychological and pedagogical aspects of early language learning, providing recommendations on effective methods and approaches. It highlights how languages acquired at an early age positively influence academic achievements and expand future opportunities.*

**Keywords:** *foreign language, games, poems, cartoons, psychological interest, liking category, preschool education, language learning methodology, language learning at an early age. innovative education, pedagogical approaches, psychology of language learning, interactive methods.*

### ПРЕИМУЩЕСТВА ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКАМ ДОШКОЛЬНИКОВ

**Аннотация:** *В этой статье рассматриваются преимущества обучения языкам детей дошкольного возраста. В статье также освещаются психолого-педагогические аспекты изучения языка в дошкольном возрасте и рекомендуются эффективные методы и подходы. Подчеркивается, что изучение языков в раннем возрасте оказывает положительное влияние на успеваемость ребенка и расширяет его будущие возможности.*

**Ключевые слова:** *иностранный язык, игры, стихи, мультфильмы, психический интерес, категория симпатий, дошкольное образование, методика*

*изучения языка, изучение языка в раннем возрасте. инновационное образование, педагогические подходы, психология изучения языка, интерактивные методы.*

### **Kirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori 1-ilovaga ko'ra "O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ni yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri maktabgacha ta'limni rivojlantirish - ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) keng joriy etish va buning uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan.<sup>1</sup>

Chet tilini o'rganishga bo'lgan talab bugungi kunning dolzarb masalasi sanaladi. Bilamizki, bolalar qiziquvchan, shu sababli kichik yoshdagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfilmlardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Chunki ulardagi asosiy tushuncha miyasida rasmi holda tasvirlanadi. Bu esa o'z navbatida bizdan barcha o'rgatiladigan narsalarni shunga ko'ra tasvirlashni talab etadi. Maktabgacha ta'limda hamda boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan bolalarning psixikasi qiziqish va yoqtirish kategoriyasiga asoslangan. Yosh bolalar tabiatan yorqin va chiroyli narsalarga juda ham qiziqishadi va ko'p e'tibor berishadi. Shuning uchun ustoz va murabbiylar ko'proq o'yin metodlaridan foydalanishi samarali usul hisoblanadi.<sup>2</sup>

### **ASOSIY QISM**

Hozirda maktablar qatorida ham maktabgacha ta'limda ham ingliz tilini o'rgatish tobora rivojlanib bormoqda. Maktabgacha va Boshlang'ich ta'limdagi bolalar uchun bu balki murakkab hisoblanishi mumkin. Ammo taraqqiyotimiz rivojlanib borgan sari raqobat kuchayib bormoqda. Albatta raqobat bor joyda rivojlanish bo'lgani kabi bu maktabgacha bo'lgan ta'limda ham ko'plab iqtidorli talabalar yetishib chiqmoqda. Bu yo'l ish bo'yicha o'qiyotgan talabalarga prezidentimiz tomonidan ham juda ko'plab imkoniyatlar berilmoqda. Bu borada bolalarga chet tilini o'rgatish uchun ham o'z metodlari bor. Masalan, avvalam bor darsda bolalarni diqqatini bitta joyga ya'ni darsga qaratib olish kerak. 3-4 yoshdagi bolalarning hissiyotlari yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ya'ni qo'rquv, jahl, qayg'urish ularning yuzidan juda yaqqol ko'rnadi. Ular boshqa bolalar bilan urushib qolishi, nimagadir totishib qolishi va boshqa biriga qayg'urishlari mumkin. 5-6 yoshdagi bolalar esa o'z harakatlarida hissiyotlarni bevosita namoyon etishdan o'zini tuta olishi yoki oliy hissiyotlariga asoslanib harakat qilishi mumkin.

<sup>1</sup> PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-may

<sup>2</sup> Toshpo'latova Go'zal Sobir qizi. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishning afzalliklari". Scientific aspects and trends in the field of scientific research international scientific online conference, Polska2023 bet 44

Shu asosda har bir bolaga bir xil tarzda dars o'ta bilish kerak. Darslarni xursandlichik va o'yinlar tarzida olib borsa yosh bolalarda til o'rganishga bo'lgan qiziqish uyg'onadi va vazifalarni ham vaqtida qilishga va darslarda faol qatnashishga harakat qiladi. Maktabgacha bo'lgan bolalarning xotiralari o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan nasralarni beixtiyor eslarida saqlab qoladilar. Ya'ni bog'cha yoshdagi bolalarga dars o'tishning o'z metodikasi bor. Bu yoshdagi bolalar ko'rgan va eshitgan narsalarini juda tez yod olishishadi. Shu yo'l natijasida bolalarga ingliz tiliga oid qiziqarli videolar, ashulalar, musobaqalar, o'yinlar orqali darslarni qiziqarli o'tqazish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Ularga musobaqalarda g'olib bo'lgan bolalarga har xil sovg'alar bilan taqdirlansa, boshqa bolalar ham shu bolaga tanqid qilish orqali ham o'rganib boradi. Har bir darslarda bolalarga ingliz tiliga oid qisqa janrdagi qiziqarli va kulguli bo'lgan multfilmlar yoki video rolliklar qo'yilsa ulardagi obrazlarning ish harakatlari orqali ham bolalar ularni mazmunini tushunishga harakat qila boshlashadi. Asosan, bolalar darslarda zerikib qolmasligi kerak bo'ladi, chunki bola zerika boshlasa undagi til o'rganishga bo'lgan qiziqishi kamayib boradi va u o'rganishni xohlamay qoladi. Dars jarayonida ham har xil o'yin va musobaqalar ham tashkillashtirish kerak. Masalan, ingliz tilining harflarini yod olishda, ingliz tilida she'rlar yod olishda juda ko'plab o'yinlar tashkillashtirsa bo'ladi. O'qish faoliyati uchun bolalarga barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va batartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Bog'chadan maktabga o'tgan bolalarda kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham katta o'zgarish paydo bo'ladi. Chunonchi maktab yoshiga yetgan bog'cha bolalari "Katta" deb hisoblanar edilar lekin ular maktabga chiqishganida, ular yana "Eng kichkinalar" qatoriga tushib qolishishadi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifalari bolalarga har tomonlama tarbiya berish, ularning taraqqiyot darajalarini maktabda o'qiy oladigan qilishdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida, maktabdagi o'qitish ishlari bilan bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlari o'rtasida ma'lum bir izchilik bo'lishini talab qiladi. Bog'chada bolalarni jismoniy jihatdan o'sishlariga qanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy va axloqiy o'sishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi. Bolalarning maktabdagi o'sish jarayoniga tayyorlashdagi asosiy vazifa bu ularning nutqlarini o'stirishdir. Shunday qilib, bolalarning maktabdagi o'qitishga tayyorgarligi shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir.<sup>3</sup>

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda bolalardagi o'ziga xos xususiyatlarni ham hisobga olish lozim. Masalan, bolalar mazmunga tushunib emas, ko'pincha mexanik yodlab oladilar. Shu boisdan ham maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda ularni ortiqcha zo'riqtirmasdan, o'yinli- ta'limdan samarali

<sup>3</sup> Ganiyeva X. Mamarahimova M. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish va hozirda chet tiliga bo'lgan e'tibor" International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada 2022. bet 1

foydalanishlari lozim. Mashg'ulotlar bolaning qiziqishlarini va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Ma'lumotlar o'ta sodda ham, o'ta og'ir ham bo'lmashligi lozim. Har ikkala holatda ham bolaning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari so'nishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda quyidagi usullardan samarali foydalanish lozim:

1. Yangi so'zlarni o'rgatishda tabiiy ko'rgazmalilikdan foydalanish. Bu jarayonda o'rganilayotgan so'zlarning, agar narsa-buyumga tegishli so'z bo'lsa, jonli ko'rsatish: qalam-pensil {qalam ko'rsatiladi}

2. Qo'shiq va she'rlarni o'rgatishda harakatlar bilan o'rgatish. Qo'shiq va she'rlarni o'rgatishda harakatlar jo'rligida o'rgatish bolalarning so'zlarni harakatlar bilan mantiqiy bog'lay olishiga yordam berib, yodlash qobiliyatlarini osonlashtiradi.

3. Chet tilining alifbosini qo'shiq tarzida turli harakatlar bilan yodlatish. Alifboni so'z orqali shunchaki yodlatishdan ko'ra bu usul bolaga ham qiziqarli, jo'rlilikda aytilganda ko'tarinkilik kayfiyatini uyg'otadi.

4. Turli jismoniy daqiqalarni chet tilidagi qo'shiq jo'rligida bajarish. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning charchog'ini yozish uchun turli jismoniy daqiqalardan foydalanganda, chet tilidagi so'zlardan ishlatish ham tilni o'rganishda ijobiy natija beradi.

5. Kichik sahna ko'rinishlarini tashkil qilish. Bunda oddiy dialoglarni sahna ko'rinishida bajartirish bolaga qiziqarli o'yindek tuyiladi.

6. Turli didaktik o'yinlar {Rangi qanaqa? Hidi qanaqa? Shakli qanday?}ni tashkil qilish;

7. Turli pantomimik harakatli o'yinlar orqali; Iqtisodiyot va ilm-fan rivojlangan davlatlarning tilini o'rganish, jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir. Asrimiz boshlaridayoq Mahmudxo'ja Behbudiy —Ikki emas, to'rt til kerak deb millatni til o'rganishga chorlagan. Buyuk mutafakkir bobomiz A. Navoiy ham o'z asarlarida —Til bilgan el bilar deb xalqni til o'rganishga, dunyoqarashini boyitishga da'vat etgan.<sup>4</sup>

## XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish ularning kelajakdagi akademik yutuqlari va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta yoshda o'zlashtirilgan tillar bolaning mantiqiy fikrlashi, nutq madaniyati va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu sababli, bolalarni chet tiliga o'rgatishda yoshga mos o'yinli metodlardan, multfilmlar, qo'shiqlar va interfaol mashg'ulotlardan samarali foydalanish lozim. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim

<sup>4</sup> Mamayakubova Shaxlo, Xushvaqtova Shoxsanam, Shodmonova Klara. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish usullari" [Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков](#) (2022) bet 309

muassasalarida chet tilini o'rgatishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, bolalarning qiziqishini oshirish va ularning til o'rganish jarayonini osonlashtirishga yordam beradi. O'qituvchilar bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuvlarni qo'llashlari kerak. Shu bilan birga, davlat tomonidan chet tilini o'rganishga qaratilgan e'tiborning ortib borayotgani kelajakda bolalar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistonda qabul qilingan til o'rgatish dasturlari va xalqaro tajribalar asosida innovatsion usullarni amaliyotga joriy etish kelajak avlodning raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **PQ-4312-son** "O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-may
2. **Yusupov, L. S.** *Bolalarni ilk yoshida xorijiy tillarni o'rgatishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati: Muammo va yechimlar.* Moluch ilmiy jurnali, 2019 5(3), 78-84.
3. **Shamansurov, Sh.** (2021). *Maktabgacha ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodikasi.* Ta'lim va Innovatsiyalar jurnali, 3(2), 45-57.
4. **Ganiyeva X. Mamarahimova M.** "Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish va hozirda chet tiliga bo'lgan e'tibor" International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada 2022.bet 1
5. **Mamayakubova Shaxlo, Xushvaqтова Shoxsanam, Shodmonova Klara.** "Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish usullari" [Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков](https://scientific-jl.com/) (2022) bet 309
6. **Toshpo'latova Go'zal Sobir qizi.** "Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishning afzalliklari". Scientific aspects and trends in the field of scientific research international scientific online conference, Polska2023 bet 44
7. **Vygotsky, L. S.** (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* Harvard University Press.
8. **Krashen, S. D.** (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition.* Pergamon Press.
9. **Cameron, L.** (2001). *Teaching Languages to Young Learners.* Cambridge University Press.
10. **Lightbown, P., & Spada, N.** (2013). *How Languages are Learned* (4th ed.). Oxford University Press.